Abstract: This article examines the mechanisms for integrating academic mobility in higher education institutions with material and technical infrastructure and financial capacity, the targeted allocation of funds generated from supplementary educational courses, and the reinvestment of savings arising from the use of enterprise infrastructure within dual education systems. The main idea of the study is that academic mobility, supplementary educational services, and dual education should be considered not as separate organizational activities, but as a unified contractual and financial management framework serving the financing of the material and technical base of higher education institutions. In the context of the ongoing formation of regulatory foundations for financial independence, academic mobility, and dual education in the higher education system of Uzbekistan, linking these processes with precise calculations, contractual mechanisms, and targeted reinvestment carries significant scientific and practical importance.

Keywords: academic mobility, material and technical base, higher education finance, supplementary educational courses, 75/25 model, dual education, Capex saving, Opex saving, extra-budgetary funds.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi ta'lim sifati, ilmiy tadqiqot natijadorligi, xalqaro hamkorlik va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini belgilovchi muhim institutsional omillardan biridir. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda qamrov kengayishi, talabalar sonining ortishi va yangi ta'lim formatlarining joriy

etilishi infratuzilma, laboratoriya, auditoriya, raqamli platforma va professor-o'qituvchilar yuklamasiga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023/2024-o'quv yilida mamlakatda oliy ta'lim tashkilotlari va talabalar soni sezilarli darajada oshgan, 2024/2025-o'quv yili boshida esa professor-o'qituvchilar korpusi ham kengayishda davom etgan.¹²

Mazkur kengayish sharoitida moddiy-texnik bazani moliyalashtirishni faqat davlat budjeti yoki bazaviy to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshirish yetarli emas. OTMlarning moliyaviy mustaqilligi, davlat-xususiy sheriklik, akademik mobillik, dual ta'lim va qo'shimcha ta'lim xizmatlari kabi yo'nalishlar moddiy-texnik bazani rivojlantirish uchun yangi moliyaviy kanallarni shakllantiradi. Prezidentning oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda davlat OTMlariga moliyaviy mustaqillik berish bo'yicha qarorlar aynan shu institutsional o'zgarishlarga huquqiy zamin yaratadi.³⁴

Akademik mobillik xalqaro tajribada universitetlararo hamkorlik, bilimlar almashinuvi va talaba hamda professor-o'qituvchilar kompetensiyasini oshirish vositasi sifatida qaraladi. UNESCO hujjatlarida mobillik shaxslarning o'qish, tadqiq qilish, o'qitish yoki ishlash maqsadida jismoniy yoki virtual harakatlanishi sifatida izohlanadi. Erasmus+ tajribasi esa mobillik dasturlari talabalar ko'nikmalari, bandlik istiqbollari va universitetlarning xalqaro integratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi.

Akademik mobillikning moliyaviy tomoni ko'pincha yetarli darajada aniq hisoblanmaydi. Talaba yoki o'qituvchi almashinuvi ortida auditoriya sig'imi, laboratoriya jihozlaridan foydalanish, professor-o'qituvchi yuklamasi, koordinatsiya, stipendiya va xizmat ko'rsatish xarajatlari mavjud. Agar bu xarajatlar oldindan shartnomaviy-moliyaviy mexanizm orqali hisobga olinmasa, mobillik OTM infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasiga qo'shimcha bosim keltirishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillik, qo'shimcha o'quv kurslari va dual ta'lim faoliyatini moddiy-texnik bazani moliyalashtirish bilan uyg'unlashtiruvchi shartnomaviy-moliyaviy mexanizmini asoslashdan iborat. Maqolada akademik mobillik uchun moliyaviy sig'imi hisoblash, qo'shimcha o'quv kurslari daromadlarini taqsimlash, dual ta'limda korxona moddiy-texnik bazasidan foydalanish orqali operatsion xarajatlarni tejash hamda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yo'nalishlari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi zamonaviy oliy ta'lim siyosatida asosiy masalalardan biri sifatida qaraladi. Jahon banki oliy ta'lim moliyasidagi global islohotlarni davlat mablag'larini to'ldiruvchi qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish, xarajatlarni taqsimlash, institutsional differentsiatsiya va boshqaruv avtonomiyasini kengaytirish bilan bog'laydi. OECD esa oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi faqat joriy xarajatlarni qoplash bilan cheklanmasligi, balki ularning jismoniy, insoniy va intellektual kapitalga yetarli darajada investitsiya kiritish imkoniyatiga ham bog'liq ekanini ta'kidlaydi.⁵ Bu yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim tizimida moliyaviy mustaqillik, budjetdan tashqari mablag'lar va moddiy-texnik bazani mustahkamlash masalalarini yagona moliyaviy boshqaruv konturi sifatida tadqiq etish zarurligini asoslaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son⁶ Farmonida ham oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish hamda bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Akademik mobillik bo'yicha xalqaro adabiyotlarda asosiy e'tibor talabalar va professor-o'qituvchilarning xalqaro tajribasi, kompetensiyasi, bandlik imkoniyatlari va universitetlarning institutsional xalqaro integratsiyasiga qaratiladi.⁷ UNESCO Global Convention hujjati oliy ta'lim malakalarini tan olish, ta'lim davrlarini e'tirof etish va akademik mobillikni yengillashtirish uchun xalqaro huquqiy asos yaratadi. Erasmus Impact Study esa mobillik dasturlari talabalarning ko'nikmalari, mehnat bozoriga moslashuvi va oliy ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalarini kuchaytirishini ko'rsatadi.⁸

- 1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024/2025-o'quv yili boshida OTMlarda professor-o'qituvchilar soni bo'yicha rasmiy reliz. stat.uz
- 2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2023/2024-o'quv yili bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari va talabalar soniga oid rasmiy statistik relizlar. stat.uz
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7386917>
- 4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
- 5 OECD. (2025). *The financial sustainability of higher education: Insights from policy in OECD countries*. Paris: OECD Publishing. doi:10.1787/f544ccfe-en.
- 6 <https://lex.uz/docs/-4545884>
- 7 Brandenburg, U., Berghoff, S., & Taboadela, O. (2014). *The Erasmus Impact Study: Effects of mobility on the skills and employability of students and the internationalisation of higher education institutions*. Luxembourg: Publications Office of the European Union. doi:10.2766/75468.
- 8 UNESCO Institute for Lifelong Learning. (2022). *The contribution of higher education institutions to lifelong learning: Global survey report*. Hamburg: UNESCO Institute for Lifelong Learning.



Biroq mavjud adabiyotlarda akademik mobillikning moliyaviy sig'imi, ya'ni mobil talaba yoki professor-o'qituvchi ortidan yuzaga keladigan auditoriya, laboratoriya, koordinatsiya, xizmat ko'rsatish va moddiy-texnik baza xarajatlarini aniq hisoblash masalasi yetarli darajada ochilmagan. Qo'shimcha ta'lim xizmatlari va dual ta'lim moddiy-texnik bazani moliyalashtirishning muhim qo'shimcha kanallari sifatida baholanishi mumkin. UNESCO Institute for Lifelong Learning oliy ta'lim muassasalarining umrbod ta'limdagi rolini tahlil qilar ekan, qisqa muddatli kurslar, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini universitetlarning jamiyatga xizmat ko'rsatish hamda qo'shimcha daromad olish faoliyati bilan bog'laydi. OECDning work-based learning bo'yicha tadqiqotlari esa ish joyida o'qitish samarali bo'lishi uchun ish beruvchi, ta'lim oluvchi va ta'lim muassasasi manfaatlarini muvozanatlashishi, korxonalaridagi amaliy o'qitish sifati va supervayzerlar salohiyati ta'minlanishi kerakligini ko'rsatadi. Germaniya BIBB manbalarida dual kasbiy ta'lim xarajatlari biznes, davlat va ta'lim oluvchilar o'rtasida taqsimlanishi, DHBW modelida esa talaba universitetdagi nazariy bosqichlar va korxonadagi amaliy bosqichlar o'rtasida almashib o'qishi, korxona bilan shartnomaga ega bo'lishi va ish haqi olishi qayd etiladi.⁹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv va moliyaviy modellashtirish usullariga tayanadi. Normativ-huquqiy tahlilda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim, moliyaviy mustaqillik, akademik mobillik, dual ta'lim va budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishga oid hujjatlari o'rganildi. Akademik mobillik va dual ta'lim bo'yicha milliy qoidalar OTMlararo shartnomalar, ta'lim kelishuvlari va moliyaviy majburiyatlarni aniqlashtirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.¹⁰¹¹²

Xalqaro tajribani o'rganishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki, Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, Baden-Vyurtemberg Dual oliy ta'lim universiteti, Shveysariya Ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalar davlat kotibiyati hamda Germaniya Federal kasbiy ta'lim instituti manbalari tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida oliy ta'limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, umrbod ta'limdan olinadigan daromadlar, ish joyida o'qitish, dual ta'lim va korxona–oliy ta'lim muassasasi hamkorligi orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash imkoniyatlari o'rganildi. Xalqaro yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromad manbalarini kengaytirish, xarajatlarni samarali rejalashtirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.¹³¹⁴

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari birinchi navbatda akademik mobillikni moliyaviy jihatdan boshqarish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida akademik mobillikni tashkil etish uchun normativ asoslar shakllangan bo'lsa-da, amaliyotda mobillik hajmini OTMning real moddiy-texnik sig'imi, professor-o'qituvchilar yuklamasi va xizmat xarajatlari bilan bog'laydigan hisob-kitob mexanizmi zarur.

$$M=K \times (a_1 + a_2 + a_3)$$

Modeli har bir kredit ortida turgan xarajadni ko'rsatib beradi va mobillikni "tashkiliy almashinuv"dan "moliyaviy rejalashtiriladigan xizmat" darajasiga olib chiqadi.

Mazkur model qabul qiluvchi OTMga uch amaliy natija beradi:

bir semestr yoki o'quv yili uchun qabul qilinadigan mobil talabalar sonini mavjud auditoriya va laboratoriya sig'imidan kelib chiqib belgilash mumkin bo'ladi;

yuboruvchi OTM bilan tuziladigan shartnomada moliyaviy majburiyatlar, to'lov manbalari va xizmatlar tarkibi aniq ko'rsatiladi;

akademik mobillikdan tushadigan yoki unga yo'naltiriladigan mablag'lar OTMning yillik biznes-rejasi va smetasiga integratsiya qilinadi.

Qo'shimcha o'quv kurslari daromadlarini maqsadli taqsimlash bilan bog'liq qisqa muddatli kurslar xalqaro amaliyotda universitetlar uchun qo'shimcha daromad va jamiyatga xizmat ko'rsatish kanali sifatida qaraladi. UNESCO UIL global so'rovlarida oliy ta'lim muassasalarida qo'shimcha o'quv kurslari faoliyati muhim moliyalashtirish masalasi

9 Duale Hochschule Baden-Württemberg. (n.d.). *Dual study programmes for international talents*. Stuttgart: DHBW.

10 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 419-son qarori // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6137567>

11 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori // URL: <https://lex.uz/en/docs/-7332601>

12 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 578-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7726569>

13 World Bank, The Finance and Management of Higher Education.

14 OECD, The Financial Sustainability of Higher Education, 2025.

sifatida ko'rsatiladi, to'lovlar esa ko'plab holatlarda bunday dasturlarning asosiy moliyaviy manbai bo'lib xizmat qiladi.¹⁵

75/25 modeli qo'shimcha kurslardan qoladigan sof qoldiqni ikki asosiy yo'nalishga ajratadi, bular xodimlar motivatsiyasi va moddiy-texnik bazani yangilashdir. Bu modelning amaliy afzalligi shundaki, qo'shimcha daromad umumiy xarajatlar ichida yo'qolib ketmaydi, balki kamida 25 foizlik "maqsadli moddiy-texnik baza ulushi" sifatida taqsimlanadi. Natijada OTM kompyuter texnikasi, laboratoriya jihozlari, raqamli platformalar, o'quv-metodik resurslar va kichik kapital ta'mirlash ishlari uchun muntazam ichki investitsiya manbaiga ega bo'ladi.

Dual ta'lim orqali moddiy-texnik bazaga tushadigan kapital va joriy xarajatlarni optimallashtirish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston dual ta'lim bo'yicha qabul qilgan normativ tartibda OTM, korxona va talaba o'rtasida shartnomaviy munosabatlar nazarda tutiladi. Bu shartnoma faqat amaliyot joyi va jadvalini emas, balki korxona infratuzilmasidan foydalanish, uskunalar xavfsizligi, mentorlik resursi, xarajatlar va natijadorlik ko'rsatkichlarini ham qamrab olishi zarur.

Germaniyadagi DHBW modeli — Baden-Vyurtemberg Dual oliy ta'lim universiteti modeli bo'lib, unda nazariy ta'lim universitetda, amaliy tayyorgarlik esa korxona yoki tashkilotda olib boriladi. Talabalar o'qish davomida universitetdagi nazariy bosqichlar va ish joyidagi amaliy bosqichlar o'rtasida almashinib ta'lim oladi. Bu model oliy ta'limni mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog'lash, korxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va moddiy-texnik bazadan birgalikda foydalanish imkonini beradi. Bu nazariya va amaliyotni almashuv tamoyili asosida biriktiradi.

Shveysariya VPET tizimi — kasbiy va professional ta'lim hamda tayyorgarlik tizimi bo'lib, yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, malakali mutaxassislar va boshqaruv kadrlarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu tizimda ta'lim jarayoni kasb-hunar maktablari, korxonalar va tarmoq o'quv markazlari hamkorligida olib boriladi. Shveysariya tajribasida ta'lim mazmuni mehnat bozori ehtiyojlari bilan bevosita bog'langan bo'lib, umrbod ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari ham muhim o'rin tutadi.

BIBB va OECD materiallari mehnat faoliyatiga asoslangan ta'lim tizimlarida firma ishtiroki, monitoring, supervisorlar sifati va moliyaviy kelishuvlarning aniqligi samaradorlikka bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.^{16/17/18}

Dual ta'limda korxona bazasidan foydalanish OTM uchun ikki turdagi tejamkorlikni keltirib chiqaradi. Kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlarning tejallishi yangi laboratoriya, ustaxona yoki qimmatbaho uskuna xarid qilish zaruratining kamayishini bildiradi. Joriy faoliyat xarajatlarning tejallishi esa elektr energiyasi, texnik xizmat ko'rsatish, sarf materiallari, uskunalar saqlash va ta'mirlash kabi joriy xarajatlarning qisqarishini anglatadi. Agar ushbu tejamkorlik alohida hisobga olinib, OTM moddiy-texnik bazasining ustuvor ehtiyojlariga yo'naltirilsa, dual ta'lim moliyaviy jihatdan bilvosita investitsiya mexanizmiga aylanadi.

Taklif etilayotgan mexanizmning ilmiy ahamiyati shundaki, u oliy ta'lim muassasasida uch xil faoliyatni yagona moliyaviy boshqaruv konturiga birlashtiradi. Akademik mobillik orqali OTM xalqaro va milliy hamkorlikni kengaytiradi, qo'shimcha o'quv kurslari orqali ichki daromadlarni ko'paytiradi, dual ta'lim orqali esa korxona infratuzilmasidan foydalanib xarajatlarni optimallashtiradi. Bu jarayonlar mustaqil ravishda emas, balki moddiy-texnik bazani rivojlantirish fondiga xizmat qiladigan yagona tizim sifatida ishlashi lozim.

O'zbekiston sharoitida bu mexanizmni joriy etish uchun birinchi bosqichda har bir OTMda "mobil sig'im pasporti" shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Bunday pasportda bo'sh auditoriya va laboratoriya quvvati, professor-o'qituvchilar yuklamasi, kredit ekvivalenti, koordinatsiya xarajatlari, talabalarga xizmat ko'rsatish xarajatlari va mavjud infratuzilma amortizatsiyasi aks ettiriladi. Shundan keyin a1, a2 va a3 koeffitsiyentlari OTMning ichki hisob-kitoblari asosida belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda qo'shimcha o'quv kurslari bo'yicha alohida moliyaviy trek ochilishi lozim. Bunda kursdan tushgan yalpi daromad, bevosita xarajatlar, taqsimlanadigan qoldiq, rag'batlantirish ulushi va moddiy-texnik baza ulushi alohida hisobga olinadi. 75/25 qoidasi xodimlar manfaatdorligini saqlagan holda OTM infratuzilmasiga muntazam investitsiya oqimini yaratadi. Amaldagi normativ hujjatlar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan rag'batlantirishga imkon berishi bunday modelni joriy etish uchun institutsional asos mavjudligini ko'rsatadi.

Uchinchi bosqichda dual ta'lim shartnomalariga moliyaviy hisob-kitob blokini kiritish zarur. Shartnomada korxona uskunalaridan foydalanish qiymati, xavfsizlik va sug'urta majburiyatlari, mentorlik xarajatlari, OTM zimmasidagi nazorat xarajatlari hamda Capex/Opex savingni hisoblash tartibi aniq aks etishi kerak. Bu dual ta'limni faqat ishlab chiqarish amaliyoti emas, balki OTM moddiy-texnik bazasini moliyalashtirishga xizmat qiluvchi shartnomaviy moliyaviy instrumentga aylantiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim moliyasida barqarorlik birgina moliyalashtirish hajmining ortishi bilan emas, balki mablag' manbalarining diversifikatsiyasi, ularning maqsadli ishlatilishi va natijadorlikka bog'langan boshqaruv orqali ta'minlanadi. OECD oliy ta'lim muassasalari daromad manbalarini diversifikatsiya qilishni moliyaviy barqarorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, 75/25 modeli va akademik mobillikning shartnomaviy narxlash modeli O'zbekiston OTMlari uchun xalqaro amaliyotga mos, ammo milliy sharoitga

15 UNESCO Institute for Lifelong Learning, The Contribution of Higher Education Institutions to Lifelong Learning: Global Survey Report, 2022.

16 OECD, Work, Train, Win: Work-based Learning Design and Management for Productivity Gains, 2016.

17 BIBB, Financing of vocational education and training in Germany.

18 Duale Hochschule Baden-Württemberg (DHBW), Dual study programmes for international talents, official information page.



moslashtirilgan boshqaruv vositalari sifatida qaraladi.¹⁹

Taklif etilayotgan mexanizmning amaliy natijasi moddiy-texnik bazani moliyalashtirish uchun “ikkinchi kanal”ni yaratishidir. Birinchi kanal — davlat budjeti, to'lov-kontrakt va asosiy moliyalashtirish manbalari bo'lsa, ikkinchi kanal — akademik mobillik bo'yicha oldindan hisoblangan moliyaviy oqimlar, qo'shimcha o'quv kurslarining maqsadli qoldig'i va dual ta'limdagi tejamkorlikdan shakllanadi. Ikkinchi kanal kichik ko'rinishi mumkin, biroq uning afzalligi — u maqsadli, shaffof, boshqariladigan va infratuzilma ehtiyojlariga bevosita bog'langan bo'ladi.

Biroq, modelni joriy etishda bir nechta cheklovlar mavjud. Birinchidan, 75/25 nisbat barcha OTMlar uchun mutlaq standart sifatida emas, minimal infratuzilma ulushini kafolatlovchi boshqaruv qoidasi sifatida qaralishi lozim. Ikkinchidan, akademik mobillik koeffitsiyentlari OTM turi, hududiy joylashuv, laboratoriya sig'imi va ta'lim yo'nalishlariga qarab farqlanishi mumkin. Uchinchidan, dual ta'limda korxona infratuzilmasidan foydalanish huquqiy, texnik va xavfsizlik jihatdan puxta shartnomalashtirilmasa, kutilgan tejamkorlik amalda yuzaga chiqmasligi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moliyalashtirishni takomillashtirish uchun akademik mobillik, qo'shimcha o'quv kurslari va dual ta'limni yagona shartnomaviy-moliyaviy mexanizm sifatida tashkil etish zarurligi asoslandi.

Modeli mobillik xarajatlarini oldindan hisoblash, OTM sig'imiga mos rejalashtirish va OTMlararo moliyaviy majburiyatlarni shartnoma asosida aniqlashtirish imkonini beradi.

Qo'shimcha o'quv kurslari bo'yicha 75/25 modeli bevosita xarajatlar qoplangandan keyingi qoldiq mablag'ni xodimlarni rag'batlantirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash o'rtasida muvozanatli taqsimlaydi. Bu model qo'shimcha ta'lim xizmatlarini kengaytirish motivatsiyasini saqlagan holda, kamida 25 foizlik maqsadli infratuzilma ulushini shakllantiradi.

Dual ta'limda korxona moddiy-texnik bazasidan foydalanish OTM uchun Capex va Opex tejamkorligini yuzaga keltiradi. Ushbu tejamkorlik alohida hisobga olinib, OTM infratuzilmasining ustuvor ehtiyojlariga qayta yo'naltirilsa, dual ta'lim moddiy-texnik bazani bilvosita moliyalashtiruvchi mexanizmga aylanadi.

Shunday qilib, taklif etilgan model O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash, moddiy-texnik bazani tizimli yangilash, xalqaro hamkorlikni real xarajatlar bilan bog'lash va qo'shimcha daromadlarni maqsadli qayta investitsiya qilish imkonini beradi. Uni bosqichma-bosqich pilot OTMlarda sinovdan o'tkazish, keyinchalik esa OTM turi, hududi va ta'lim yo'nalishi bo'yicha differensiallashtirilgan tarzda normativlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024/2025-o'quv yili boshida OTMlarda professor-o'qituvchilar soni bo'yicha rasmiy reliz. stat.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2023/2024-o'quv yili bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari va talabalar soniga oid rasmiy statistik relizlar. stat.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-61-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7386917>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>
5. European Commission, The Erasmus Impact Study: Effects of mobility on skills, employability and institutional internationalisation.
6. UNESCO, Global Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education, 2019.
7. OECD. (2025). The financial sustainability of higher education: Insights from policy in OECD countries. Paris: OECD Publishing. doi:10.1787/f544ccfe-en.
8. World Bank. (1998). The financing and management of higher education: A status report on worldwide reforms. Washington, DC: World Bank.
9. Brandenburg, U., Berghoff, S., & Taboadela, O. (2014). The Erasmus Impact Study: Effects of mobility on the skills and employability of students and the internationalisation of higher education institutions. Luxembourg: Publications Office of the European Union. doi:10.2766/75468.
10. UNESCO Institute for Lifelong Learning. (2022). The contribution of higher education institutions to lifelong learning: Global survey report. Hamburg: UNESCO Institute for Lifelong Learning.
11. Duale Hochschule Baden-Württemberg. (n.d.). Dual study programmes for international talents. Stuttgart: DHBW.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi 419-son qarori // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6137567>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-

19 OECD, The Financial Sustainability of Higher Education, 2025.



- tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori // URL: <https://lex.uz/en/docs/-7332601>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 578-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7726569>
 15. World Bank, The Finance and Management of Higher Education.
 16. OECD, The Financial Sustainability of Higher Education, 2025.
 17. UNESCO Institute for Lifelong Learning, The Contribution of Higher Education Institutions to Lifelong Learning: Global Survey Report, 2022.
 18. OECD, Work, Train, Win: Work-based Learning Design and Management for Productivity Gains, 2016.
 19. BIBB, Financing of vocational education and training in Germany.
 20. Duale Hochschule Baden-Württemberg (DHBW), Dual study programmes for international talents, official information page.
 21. OECD, The Financial Sustainability of Higher Education, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100